

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

2/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

2/3-сан 2025

март - апрель

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемгі хәм мектеп билимлендириуи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Сапардурды АБАЕВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Сафо МАТЧОН
Мавлюда АЧИЛОВА	Шукурулло МАРДОНОВ
Азизжан АБДАЗИМОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	Абдимурад ЕСЕМУРАТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Мансурбек ОНГАРОВ	Раъно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Норим РАХМАНОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Муқаддас РАХМАНОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМІРНОВА (Москва, Россия)
Гулзабира БАБАШЕВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Умида БАҲАДИРОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Гўзал СОДИҚОВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Комил ГУЛЯМОВ	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Куанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Ойбахор ШАМИЕВА
Шохида ИСТАМОВА	Ризамат ШОДИЕВ
ВОХИД КАРАЕВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Джавдод ПҰЛАТОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Пердебай НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Jalgasbaeva iyasín frazeologiyalıq birlikler arqalı jetilistiriw	7
Palimbetova D.T. Qoraqalpoq lingvomadaniyatida “Shaxsiy masofa” kontseptining tahlili	12
Tuxtayeva M.Sh. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish	18
Omanova M.A. O‘quvchilarni badiiy asarni tahlil va talqin qilishga o‘rgatish usullari	23
Allayorov T.R., Dosanov N.X. O‘zbek tilida texnik terminlarning sintaktik yo‘l bilan yasalishi	29
Аллаёров Т.Р. Ўзбек тили дарсларда нуткий кўникмаларни интерфаол усуллардан фойдаланган ҳолда ташкил қилиш	35
Mustafayeva N. Nutqiy ko‘nikmalarni takomillashtirishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati (Oliy ta‘lim muassasalari talabalari misolida)	41
Xonova D.B. Rus tilini o‘qitishda gapirishni rivojlantiruvchi texnikalarni takomillashtirish (iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari misolida)	52
Бекбергенов Х.У. Структурно-семантические особенности исходного падежа в каракалпакском языке и способы их выражения в английском языке	62
Нуратдинова Н.Б. Психолого-педагогические подходы к обучению предложениям английского языка учащихся общеобразовательных школ	70
Abdullaeva D.A. Methodological platform for future foreign language teachers studying english and ways for its implementation	78
Sattarov B.I. The role of speech skills in improving communicative competence in foreign language classes for students of non-philological education	85

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Nauruzbaeva A.S. Klass jamáátiniń tárbıyalıq imkaniyatların diagnostikalaw	93
Baxadirova F.M. Mektep oqıwshılarınıń tárbıyalıq dárejesin diagnostikalaw jolları	98
Zaynitdinova M.A. Ta‘lim nazariyalari va ularning amaliyotga tatbiqi	104
Zaynitdinova M.A. Summativ va formativ baholash tizimi	107
Sobirov B.B. Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	113
Baybayeva M.X., Egamberdiyeva Y.F. Xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish	120
Abdullayeva N.M. Innovatsion pedagogika rivojining strategik yo‘nalishlari	129
Abduraxmonov Yo.A. Umumta‘lim maktab direktor o‘rinbosarlari faoliyati samaradorligini oshirishda variativ dasturlardan foydalanish	137
Sattarov B.I. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda neyropedagogika qonuniyatlaridan foydalanish usullari	142
Xasanova Z.M. Raqamli iqtisodiyot davrida oliy ta‘limni rivojlantirishning innovatsion strategiyalari	148
Isoxonov J.H. Oliy ta‘lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini shakllantirish	155
Kushimova M.J. Kredit-modul tizimi sharoitida didaktik kompetensiya: nazariy va amaliy jihatlar	160
Toshmurodova M.N. Umumta‘lim muassasalarida o‘qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida boshqarish tamoyillari	170
Buriyeva X.B. Oliy ta‘limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini boshqarish mexanizmlari	177
Эгамбердиев Ф.Б. Ўқитувчиларнинг инновацион фаолияти бошқарув объекти сифатида	188
Sodiqov R.T. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	192

Jumanova F.U. Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari fonida bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion kompetentligini sintezlash	197
Narimbaeva L.K. Oliy ta‘lim muassasasi talabalarida yetakchilik fazilatlarini shakllantirishning psixologik va pedagogik sharoitlari	203
Бабаниязова Н.П. Современные научные подходы к цифровизации образования: преимущества, ограничения и перспективы	208
Джанабаева А. Роль дисциплины «педагогика» в формировании методической компетентности будущего учителя иностранного языка	220
Абдулхаева М.Б. Деонтологические подходы к оценке качества обучения в вузе	232
Маманазарова Н.К. Нейромаркетинг в образовании: эмоции как ключ к успеху	237
Nuratdinova J.S. Approaches to Improve Professional Communication Skills (for agricultural students)	245
Smanova A., Spanalieva G. Application of the case-study method in the organization of independent work of students	249

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХИЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Safaraliyev A. A. Amir Temur jang san‘atida psixologik ta‘sir etish usullarining tutgan o‘rni	255
Yunusova Sh. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi yosh avlodga buyuk merosdir	259
Negmatova Sh.Sh. Samarqand jadidlari ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	263
Толегенова С.А., Согулкинар Д.А. Лабиринты отчуждения в произведениях Ф.Кафки и Ф.М. Достоевского: от Грегора Замзы до Радиона Раскольникова	268

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Djaykov G., Allamuratova N.K., Saxanova L.J. Tibbiy signal va ma‘lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qiluvchi intellektual dasturiy ta‘minot yaratish	277
Rustemov A.T. “Media savodxonlik”, “Media kompetentsiya”, “Talabalarning mediasavodxonligi” tushunchalarining mazmuni, tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligi	282
Avazov G‘. B. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari	287
Alkarova F.N. Umumta‘lim maktablarida texnologiya fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini takomillashtirish masalalari	294

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Klicheva Z.P., Seitmuratova V.J. Mektepke shekemgi jastag‘i balalardın tayanish kompetentsiyalarin qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti	302
Karimova G. I. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	310
Matyakubova N.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls xalqaro baholash sinovlariga asoslangan o‘qish savodligini baholashda discovery learning modeli misolida	315
Ғаниева А.З. Мактабгача таълимда дуал таълим орқали инновацион бошқарувнинг сифатини баҳолаш индикаторлари ва мезонлари	323
Shukirullaeva S.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining refleksiv kompetentsiyasini shakllantirish	334
Gimazutdinov R.G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan badminton mashg‘ulotlarini olib borish uslubiyati	337
O‘razaliyeva S.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatishda art texnologiyalarining o‘rni	345
Tursunboyeva M.D. Bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotiga ijtimoiylashtirishda ota-ona va tarbiyachining roli	348



Maripova N. X. Таълим кластери бўлажак тарбиячиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг интеграцион муҳити сифатида	351
Urmunova T.I. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	355
Mambetaliev K.A. Бошланғич таълимда она тилини ўқитишнинг замонавий усуллари	361
Farmonov O'N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda didaktik o'yinning ahamiyati	364
Atabekov F.O. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy holatini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	369
Azamatova D.Sh. Individual ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashning individual-psixologik shart-sharoitlari va xususiyatlari	373
Teshabayeva Z.S., Normurodova S.L. Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish texnologiyalari	377
Kodirova M.E. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tashkillashtirish va bolalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish (tayyorlov guruhi misolida)	381
Shanasirova Z. Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'limning pedagogik texnologiyasi	385
Ahadova R. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqirishda innovatsion STEAM dasturlarining qo'llanilishi	391
Abdunazarova Z. X. Bo'lajak boshlangich sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirish mazmuni va falsafiy xususiyatlari	397
Xurvalieva T.I. Эмоциональное развитие детей дошкольного возраста	406

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Pirmatova N. Maqom san'ati: an'analardan zamonaviy ijodgacha	410
Saidqulova G. O. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari (maktabgacha ta'lim yo'nalishi misolida)	417

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Buvorayeva G. Sh. O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning ta'limiy-tarbiyaviy mexanizmlari	422
Maxmudova S.A. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	426
Tulishov G'R. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligining tuzilmasi, mazmuni va o'ziga xosligi tushunchalar tizimi	430
Jabborova Yu.H. Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashda konseptual yondashuvlar	441
Erkinova S. O'zbekiston yoshlari iqtisodiy ijtimoiylashuvida etnik omillar ta'sirining psixologik xususiyatlari	448
Nazarova F.X., Nizamova Sh.I. Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar modellari tatbig'i	453
Uzaqov N.H. Raqamli ta'lim jarayonlarini boshqarishda ta'lim tizimini modellashtirishning asosiy o'rni	458
Isoqov J.Z. Bolalarni sport turlariga saralab olishda psixologik temperament xususiyatlari	465
Yuldashev N. B. Inson resurslarini boshqarishning nazariy kontseptual asoslari	470
Miskinova D.N. Ta'lim muassasalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqarish	475
Nazarova F.X., Jonibekov J. J. Raqobatbardosh tibbiy xizmatlarni tashkil etishning zamonaviy talablari	480
Xolmatova S.K. Kredit modul tizimida mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etishda xorijiy tajribalar	484



Mutalova D. A. Chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot muammosi	489
Дониёров С.М., Нуриева У. Б. Методологические аспекты управленческой деятельности менеджмента в учебном заведении	493

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Yaqubov A.M. Jismoniy tarbiya: ta'lim, salomatlik va psixologik rivojlanishning integratsiyasi	501
Джурабеков Э.Т. Жисмоний тарбия дарсларида талабаларнинг жисмоний сифатларини ошириш	505
Xoliqov B.X. Kurashchilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirish metodikasi	509
Джурабеков Э.Т. Замонавий жамият ҳаётида жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни	516
Samadova O'.X. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida kasbiy kompetentsiyaga asoslangan yondashuv	520
Karimov D.A. Jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning jihatlari	525
Soatov E.M. Talabalarda kurash sporti bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	530
Ziyoov O. T. 5-7 yoshli bolalar o'rtasida futbol o'yini elementlaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya metodikasini takomillashtirish usullari	537
Эрдонов О.Л., Махмудов В.В. Значимость спортивно - массовых, физкультурно-оздоровительных мероприятий в формировании здорового образа жизни студенческой молодёжи	543
Эрдонов О.Л. Спортивно-массовые и оздоровительные мероприятия с элементами соревновательной деятельности в образовательном процессе студенческой молодёжи	549

G.J. Filolog-studentlerdin leksikalik kompetenc

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Urmonova T.I.

Chirchiq Davlat Pedagogika

Universiteti "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi"

kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha yosh, ijodiy qobiliyat, kreativlik, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini faollashtirish, ijodiy tafakkur, hayratlanish, noodatiy vaziyatlarga yechim topish qobiliyati.

Ключевые слова: дошкольный возраст, творческие способности, креативность, самосознание, самоактивация, творческое мышление, удивление, умение находить решения необычных ситуаций.

Key words: preschool age, creativity, creativity, self-awareness, self-



activation, creative thinking, surprise, the ability to find solutions to unusual situations.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik muammolar borasida ayrim jihatlar yoritilgan. Shuningdek, bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga doir qarashlar sharhlangan. Maktabgacha yoshdagi bola ijodiy rivojlanishi uning intellektual va hissiy rivojlanishining asosiy usullaridan biri sifatida ko'rsatilib, ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещаются содержание и структуры развития творческих способностей дошкольников. Также раскрыты принципы развития творческих способностей детей и основные показатели процесса их развития. Творческое развитие дошкольника представлено как один из основных способов его интеллектуального и эмоционального развития, приводятся выводы и предложения по развитию творческого мышления.

SUMMARY:

This article highlights the content and structures of the development of creative abilities of preschoolers. The principles of developing children's creative abilities and the main indicators of their development process are also revealed. The creative development of a preschooler is presented as one of the main ways of his intellectual and emotional development, conclusions and suggestions for the development of creative thinking are given.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda sodir bo'layotgan islohotlar, ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar, bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim



va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda kelgusi 7 yilda O'zbekistonning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat "O'zbekiston 2030 strategiyasi" ga muvofiq har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishda oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi, bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv lozimligi belgilab berildi.

Bugungi kun pedagogi oldida, tarbiyalanuvchiga tayyor ma'lumotlarni uzatish emas, balki motivatsion, tashabbuskor, ijodiy izlanuvchan hamda muvaffaqiyatga yo'naltirilgan shaxslarni tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Tarbiyalanuvchiga ma'lumotlarni uzatish jarayonida uni tushunish va qo'llash usullari bilan tanishtirish lozim, buning natijasida u o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Xuddi shu ma'noda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ijodiy qobiliyat nima? Ijodiy qobiliyat - bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarni original va samarali yechish, bor narsalarga noan'anaviy yondashish qobiliyatidir. Bolalarda bu qobiliyatlar tabiiy ravishda mavjud bo'ladi, ammo ularni faol rivojlantirish va yo'naltirish orqali yuksak natijalarga erishish mumkin.

Sharqning buyuk mutafakkirlarining asosiy g'oyasi hamda tadqiqot yo'nalishlaridan biri bolalarni jismoniy ruhiy va aqliy kamoloti bilan bog'liq masalalar bo'lgan. Jumladan, sharq mutafakkirlaridan Al Horazmiy, Al Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Abu nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqqa mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ta'lim berish usullari va bola shaxsini shakllantirish, uning intellektual, ruhiy-jismoniy rivojlanishini baholash bilan bog'liq masalalar borasida asosli fikrlar ilgari surilgan.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya birligiga barkamol, aqlli va ma'naviyatli insonni tarbiyalash vositasi sifatida qaraydi, o'z asarlarida mutafakkir insonning ma'naviy boyligini sharaflaydi, uni madaniyatli va ma'rifatli, aqlli va idrokli qilib tarbiyalashga chaqiradi; xotira, aql, ilhom, qobiliyatlari, tajriba va ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi.

Abu Nasr Farobiy esa "Insonlar turli ilm, hunar faoliyatiga moyilliklari va qobiliyatliliklari bilan tabiatan bir-biridan farq qiladi. Teng tabiiy xislatlarga ega bo'lgan odamlar esa, o'z tarbiyasi (malakalari) bilan farq qiladi deb,

xisoblaydi.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi tadqiqotchilar K.Mirzayev, J.Turdiyeva, N.Ismaylova, T.Xurvaliyeva, D.Abduraximova; R.Nosirova, O.Maxmudova, N.Muslimovlarning tadqiqotlarida batafsil yoritilgan.

Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining ijtimoiy-pedagogik zaruratu haqida soʻz borar ekan, tadqiqotchi J.Turdiyeva bu borada shaxsga yoʻnaltirilgan innovatsion yondashuv asosida muammoni tadqiq qiladi.

Tadqiqotchining fikricha, har bir tarbiyalanuvchida oʻzining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Uning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash juda muhimdir, deb xisoblaydi.

Tadqiqotchi T.L.Xurvaliyeva maktabgacha (5-7) yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish ularda qiziquvchanlikni oshiradi va atrof olam bilan tanishish natijasida ijodiy tasavvur shakllanadi, bu esa, bolaning intellektual va yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi, deb alohida toʻhtalib oʻtadi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi MDH va xorijlik olimlaridan E.Bono, B.Blum, A.Shiyan, V.Kusakova, B.Gerbova, A.Mixaylova, Ye.Tixeeva, F.Blexer, Ye.Nosova, M.Polyakova, A.Stolyar, A.Beloshistaya, J.Almon, A.Baroody, J.Sarama, G.Duncan, C.Japel, P.Klebanov, E.Miller, L.Pagani, J.Lee, T.Xavashi, K.Kavano, M.Montessori, S.Bendjamin, St. Hall, V. Hartmann, K. Lange, V. Seyffert va boshqalar tomonidan maktabgacha taʼlim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni tashkil etishning metodik asoslari bilan bogʻliq masalalar sifatida oʻrganilgan.

Ayrim pedagoglar tomonidan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jahon ilm-fan tizimida mos ravishda bir necha yoʻnalishda oʻrganiladi:

-ijod ijodiy faoliyatning maxsuli sifatida;bu borada tadqiqot ishlarini olib borgan J.Teylor ijod mahsulini baholash darajalarini batafsil yoritib bergan:Sifat, miqdor va mahsulotning ahamiyati.

-ijodiy qobiliyatlar shaxs tuzilishidagi jabhalardan biri sifatida oʻrganiladi. Bu borada A.Maslou, K.Rodjerslar kreativlikni oʻz-oʻzini anglash va oʻz-oʻzini faollashtirish masʼuliyati bilan bogʻlaydilar.

-ijodiy tafakkur psixik jarayon sifatida; Bunda aniq bosqichlari oʻrganiladi: tayyorgarlik,yetuklik, ilxomlanish va haqiqiyiligini tekshirish;

-ijodiyot qobiliyat sifatida oʻrganiladi –masalan, fikrlashning qotib qolgan usullaridan voz kechish qobiliyati(K.Simpson), yoki hayratlanish va bilish, noodatiy vaziyatlarga yechim topish qobiliyati(E.Fromm).



Yuqoridagi pedagoglarning ilmiy qarashlari va nuqtai nazarlaridan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishni ta'lim sifatini oshirishning muxim jabhalaridan biri sifatida qarash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim - bolalarni maktabga tayyorlash vositasi sifatida emas, aksincha yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida shakllantirishning muhim bosqichi sifatida belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi o'quv jarayoniga kiritilayotgan innovatsiyalar, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, taxlil qilish, umumlashtirish hamda yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ta'lim jarayoni mazmuni va metodlarini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan sanaladi.

Bolalarda ijodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish, uni amalga oshirish metodikalarini loyihalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kun pedagogi oldida, tarbiyalanuvchiga tayyor ma'lumotlarni uzatish emas, balki motivatsion, tashabbuskor, ijodiy izlanuvchan hamda muvaffaqiyatga yo'naltirilgan shaxslarni tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Tarbiyalanuvchiga ma'lumotlarni uzatish jarayonida uni tushunish va qo'llash usullari bilan tanishtirish lozim, buning natijasida u o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi. Zotan, maktabgacha ta'lim - bolalarni maktabga tayyorlash vositasi sifatida emas, aksincha yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida shakllantirishning muhim bosqichi sifatida belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlarini quyidagi jihatlarni qamrab olishini ko'rsatish mumkin:

- Faol xayol jarayoni;
- Egiluvchan tafakkur;
- Ichki intuitsiyani rivojlanganligi;
- Tashabbuskorlik;
- Nazariy bilimlarini hayotda qo'llash;
- Qiziquvchanlik;
- Qabul qilish tezligi.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bola ijodiy rivojlanishi uning intellektual va hissiy rivojlanishining asosiy usullaridan biri bo'lib, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, bolaning shaxsiyatini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurati yuzasidan olimlarning qarashlari, milliy va horijiy



tajribalar, ta'limiy dasturlar tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maktabgacha yosh davridagi ijodiy rivojlanish-bu bolaning dunyoni bilish hamda o'zini namoyon qilishda o'z ehtiyojlari va istaklarini amalga oshirishga imkon beradigan davr hisoblanib uning samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi.

2. Bolalar ijodiy rivojlanishi o'yin bilan uzviy bog'liq, o'yinda bolalar voqelik g'oyasini, vaziyatni yaratish va muammolarni kattalar yordamisiz hal qilishning birinchi tajribasini shakllantiradilar, shuning uchun o'yin va ijod o'rtasida chegara yo'q. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda, barcha ta'lim yo'nalishlarida o'yinga asoslangan yondashuv tamoyilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

3. Maktabgacha yosh davridagi ijodiy rivojlanish bolaning "Men" konsepsiyasini shakllanishida zarur komponent xisoblanadi. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning konstruktiv sherikchilik faoliyati uzviy bog'liqlikda amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarini zamonaviy ta'lim berish metodlari va texnologiyalarini egallashlari bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida ko'rib, quyidagi yechimlar taklif etiladi:

1. Pedagoglarni ijodiy izlanishlarini oshirish, mavzu bo'yicha malakalarini muntazam oshirib borish: Ijodiy ta'lim metodlari bo'yicha doimiy "Mahorat darslari", amaliy seminar va treninglar tashkil etish.

2. Umumiy ta'limiy faoliyat va rivojlanish markazlaridagi o'yinli ta'limiy faoliyatlarni integratsiyalash: Faoliyat davomida bolani rag'batlantirish: Bolalarni rasm chizish, musiqa, qo'g'irchoq teatri, dramalashtirish kabi faoliyatlarga jalb etish.

1. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan faol hamkorlik: Ularning bolalarda ijodiy qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish.

2. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish: Blum taksonomiyasi, IMEN, Kvest, "Ertak kollaj", "Mantiqiy karusel", STEAM, Mnemo texnika kabi yondashuvlarni joriy etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat ularning intellektual o'sishi, balki kelajakda mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va zamonaviy shaxs sifatida voyaga etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun davlat, ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasida yaqin hamkorlik zarur.

**FOYDALANILGAN ABAIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. T.: 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son).
2. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi), T.: “Tafakkur bo‘stoni”. 2011. (64-bet).
3. Xurvalieva T.L. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish”. Ped.fan.doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss. Toshkent. 2021. 237 b.
4. Фридман, Л. М. Психология мышления [Текст] / Л. М. Фридман, И. Ю. Кулагин. – М. : Изд- во МГУ, 1984. – 270 с.
5. Торренс П. Тест творческого мышления - ТТСТ: Методические рекомендации по работе с тестом (для школьных психологов)/ Перевод Н.Б.Шумаковой, КИ.Щеблановой, Н.П.Щербо. - М., 2014. – С.44
6. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – Москва, 2010. – С. 148.

Urmonova T.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish va ijodiy fikrlash layoqatlarini shakllantirishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish. “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ahloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy anjumani. Namangan 2024 yil 28-29 may. 130-132 b











